

Farzandingiz bilan faxrlanasizmi?
Опубликовано Хусен Тангриев
Farzand tarbiyasi
January 17, 2008

Rivoyatda keltirilishicha, qadim zamonlarda bir ota o'z mamlakati podshosining bergan savollariga javob topolmay mulzam bo'lib qolibdi. Shunda unga yoshlikda ilm o'rganmay umrini besamar o'tkazib yuborganligi uchun og'ir jazo berilibdi. Bu xabarni eshitgan uning uch o'g'li podshoh oldiga arzi-dod qilib kelishibdi. Otasiga berilgan savollarga o'g'illarining o'zlari javob berajaklari, ular ham javob bera olmasa, har qanday jazoga ham tayyor ekanliklarini aytib iltijo qilishibdi.

Yurt egalari kengashib, otasi uchun shunchalik kuyib-yonayotgan farzandlar shartini qabul qilibdi va ularga uchta savol berishibdi. O'g'illar har uchala savolga to'g'ri va aniq javoblar qaytarishib, barchani qoyil qoldiribdi.

Podshoh o'z farzandlarini shunchalik ilm-hunarli, odobli, mehr-oqibatli, mard va jasur qilib tarbiyalay olgan otaga yaxshi bir mukofot taqdim qilibdi. Ammo, o'z farzandini ilmsiz, omi qilib qo'ygan otaning otasiga esa qirq darra jazo berish lozim, deb e'lon beribdi.

Bu rivoyatda ota-ona o'z farzandining ilimli, hunarli bo'lishida qanchalik javobgar, mas'ul ekanligi ko'rsatilgan.

Muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov o'zining «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli tarixiy ahamiyatga ega ma'ruzasida shunday fikrlarni ilgari suradi: «Ota-onaning farzandlari oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: «Yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, boshini ikki, uy-joyli qilish».

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 30-moddasida ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha belgilab qo'yilgan: «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar».

Shunday ekan, bugungi ota-ona o'z farzandi tarbiyasiga, uning chuqur bilim olishiga qanday qarayapti?! Kuchdan qolib, keksayganida, o'g'il-qizi qo'lidan bir piyola choy icha olishi uchun bugun ana shunga zamin yarata olayaptimi?

Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasining tashabbusi bilan har chorakda har bir ta'lim muassasasida barcha fanlar bo'yicha ochiq hisobot darslari o'tkazilmoqda. Ularda o'quvchilarning ota-onalari, maktab Direktor jamg'armasi hisobidan ustama haq belgilovchi maxsus komissiya a'zolari, ota-onalar, xotin-qizlar qo'mitalari, mahalla faollari vakillari ishtirok etishyapti. Uning natijalariga ko'ra, o'tayotgan ochiq hisobot darslari o'zining anchagina yaxshi samaralarini bera-yotganligini ko'rsatmoqda.

O'g'il-qizlar o'z ota-onalarining huzurida chorak davomida olgan bilimlarining hisobini berishning nechog'lik mas'uliyatligini chuqur his qilib, ko'proq vaqtlarini dars tayyorlashga, kitob mutolaasiga ajratayotgan bo'lsalar, fan o'qituvchilari ham o'z mehnati mahsulini ko'pchilik oldida namoyish etish mas'uliyatini to'liq anglab yetib, bugungi faoliyatiga erta bir kun hisob berganida, uyalib qolmaslik uchun vaqtdan unumli foydalanishga, o'z ustida ko'proq ishlashga, ko'rgazmali qurollarni ko'paytirishga, qo'shimcha adabiyotlarni izlab topib, ulardan

samarali foydalanishga harakat qilishyapti. Bular o'z o'rnida ijobiy natijalar tomon siljish imkonini yaratmoqda.

Ayni kunlarda to'rtinchi chorak davom etyapti. Bu chorakda esa yil davomida o'quvchilarning olgan bilimlariga bag'ishlanadigan ochiq hisobot darslari tashkil etilib, unda har bir fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha o'zi o'qitayotgan har bir sinfda o'quvchilarga yil davomida o'tilgan mavzular bo'yicha bergan bilim-ko'nikmalari borasida hisobot beradi.

Ota-onalar esa o'zining har bir sinfdagi farzandi barcha fanlardan nechog'lik bilimga ega bo'lganliklarini ushbu darslarida ishtirok etganda bilib oladilar. Buning uchun ular o'g'il-qizlari uchun qimmatli vaqtlaridan hech bo'lmaganda 3-4 soat vaqt ajratib, maktabga tashrif buyurib, ochiq hisobot darslarida ishtirok etishlari lozim bo'ladi. Bu bilan ular ham farzandlariga, ham fan o'qituvchisiga, ham maktab ma'muriyatiga yaqindan yordam bergan bo'ladilar.

Umr ko'z ochib yumgunchalik qisqa fursat. Uning har bir oni g'animat. Ota-onalar ertangi yaxshi kunlar bugungi kungi samarali faoliyatga bog'liq ekanligini tushunib yetadilarmi yoki hamon bemulohaza fikrlar girdobida yurishibdimi?! Ba'zida «shuncha o'qiganing yetar endi, menga shahar olib berarmiding», «hamma olim bo'lib ketaversa, podani kim boqadi» degan gaplar quloqqa chalinib qoladi.

Lekin ayrimlar har ishda, hatto poda boqish uchun ham ilm kerakligi haqida mulohaza yuritishmaydi. Bu borada Suqrot Hakimning «O'qib-o'rganmay turib ham foyda va zararning farqiga yeta olaman, degan odamni tentak deb bilmoq kerak», degan hikmatli gaplari javob bo'la oladi.

«Bilim — misoli bir jilov, u odamni barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Ilm egasi o'z tilaklarini topadi, orzu-maqсадlariga erishadi», deydi sevimli yozuvchimiz Tohir Malik o'zining «Kimning baxti boqiy?» nomli asarida. Darvoqe, biz buyuklarimizning hikmatlar bilan yo'g'rilgan fikrlarini keltirishimizdan maqsadimiz, o'g'il-qizlarimiz yetuklik darajasida ilm olishlari uchun bugun nimalarga e'tibor qaratishimiz, qanday samarali tarbiyaviy usullardan foydalanishimiz, bu borada ota-onaning farzand tarbiyasiga, ta'lim olishiga ta'siri, ta'lim-tarbiya tizimi xodimlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishining samarali tomonlari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Aziz ota-onalar farzandlari bilan kelajakda faxrlanishni istasalar, ulug' niyatlariga, buyuk saodatga erishmoqni tilasalar, ayni paytda ta'lim-tarbiya ishida faol ishtirok etish, o'z ota-onalik burchlarini ko'ngildagidek bajarish bilan erishadilar. Axir donolar aytganlaridek, «Bola aziz, odobi undan aziz». O'g'il-qizlarimiz esa bu odobga ilm-hunar egallash orqali sazovor bo'ladilar. Zero, Hazrati Odam — bilim, aql-idrok sabab muhtaram. Bilimsiz kishilar — donolarning dushmani. Bilimsiz doimo donolarga xorlik tilaydi. Ilmsiz odam ko'zi ko'r kishiga o'xshaydi. Lekin uni chetga surib tashlash insofdan emas. Balki uning ko'zini ochish uchun barchamiz birdek mas'ulligimizni unutmasligimiz zarur.

So'zimiz so'ngida Yurtboshimizning hikmatlar bilan yo'g'rilgan quyidagi mulohazalarini keltirib, uni har bir pedagog va bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi yurtdoshimiz o'qib va uqib olmog'ini hamda amal qilmog'ini ta'kidlaymiz, tavsia etamiz:

«Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi, deb e'lon qilganmiz... Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch — ma'rifatdir. Aql — zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi».

Mavluda AHTAMOVA,